

KREDIT MAHSULOTI PASPORTI

Kredit mahsulotining turi va nomi	Avtokredit – ikkilamchi bozor uchun
Qarz oluvchi qo'yiladigan talablar	O'zbekiston Respublikasi rezidenti bo'lgan, 18 yoshga to'lgan, shuningdek ish haqi ko'rinishidagi oylik rasmiy daromadiga ega bo'lgan jismoniy shaxslar yoki o'zini o'zi band qilgan jismoniy shaxslar.
Kredit valyutasi	O'zbekiston Respublikasi milliy valyutasi - so'm
Kredit miqdori	Sotib olinayotgan avtotransport vositasi narxining 64% miqdorigacha
Kredit maqdsadi	Ikkilamchi bozordan avtotransport vositasi sotib olish uchun
Kredit muddati	Imtiyozli davrsiz. 36 oy muddatgacha
Foiz stavkasi	Yillik 27%
	Kredit foizlariga boshqaruv qarori bilan o'zgartirish kiritilishi mumkin.
Taqdim etish shakli	Oldi-sotdi shartnomasiga asosan avtotransport vositasi dastlabki egasining “Universal bank” da ochilgan omonat hisob raqamiga yoki bank plastik kartasiga pul o'tkazish yo'li orqali
Boshlang'ich to'lov	Avtotransport vositasi qiymatining 36% dan kam bo'lmagan miqdorda;
Talab etiladigan xujjatlar	- Qarz oluvchining shaxsini tasdiqlovchi xujjat (pasport, ID-karta, yashash uchun guvohnoma va x.k); - Avtotransport vositasining oldi-sotdi shartnomasi; - Avtotransport vositasi qiymati haqidagi mustaqil baholash hisoboti;
Kredit ta'minoti	Kredit hisobiga sotib olinayotgan avtotransport vositasi ta'minot sifatida kredit miqdorining 125% dan kam bo'lmagan qiymatda qabul qilinadi; * Bankka aloqador bo'lgan shaxslarga ajratiladigan kreditlar bo'yicha 130% qiymatida garov qabul qilinadi.
Kredit qaytarish tartibi	Kredit va hisoblangan foizlarni to'lash kredit shartnomasida belgilangan tartibda va shartlarda annuitet yoki differentsial to'lov usulida amalga oshiriladi.

Qo'shimcha shartlar	* Kredit olishni istagan qarz oluvchi rasmiy daromadga ega bo'lsa, kreditni olish uchun ariza berganida, oxirgi ish joyida kamida 6 (olti) oy davomida uzluksiz ishlagan bo'lishi; * Qarz oluvchining o'rtacha oylik sof daromadining 50%i kredit bo'yicha eng yuqori oylik to'lov hamda mavjud kreditlar/qarzlar bo'yicha o'rtacha oylik to'lov miqdorini qoplash uchun etarli bo'lishi; * Kredit olishni istagan qarz oluvchi o'zini o'zi band qilgan bo'lsa, o'zini o'zi band qilganlik guvohnomasini taqdim etishi; * Ijobiy kredit tarixiga ega bo'lishi; * Sotib olinayotgan Avtotransport vositasining ishlab chiqarilgan yili oxirgi 5 yildan oshmagan bo'lishi;
----------------------------	--